



Xalq so'zi

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 20-noyabr, № 242 (9137)

Payshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHGA QARATILGAN USTUVOR VAZIFALAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 19-noyabr kuni kambag'allikni qisqartirish hamda aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlar sarhisobi va kelgusi yil uchun ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

Ta'kidlanganidek, o'tgan davrda bu yo'nalishdagi ishlarni quyida to'g'ri tashkil qilish, mahallama-mahalla yurib, yangi tashabbuslarni topib, odamlar hayotini yaxshilashga mas'ul bo'lgan viloyat, tuman hokimlari hamda ular xodimlarining moddiy va texnik imkoniyatlari tubdan yaxшилandi.

Joriy yil boshidan ishsizlik 4,9 foizga tushdi (o'tgan yili 5,5 foiz bo'lgan). Ayniqsa, Buxoro, Kogon, Navoiy, Zarafshon, G'ozg'on, Samarqand, Shirin shaharlarida ishsizlik 4 foizdan passayib, ilk bor “tabiiy ishsizlik” darajasiga yaqinlashdi.

Ehtiyojmand 302 ming oila kambag'allikdan chiqdi. Yil yakunigacha kambag'allik darajasi 6 foizgacha kamayishi kutilmoqda (o'tgan yil 8,9 foiz bo'lgan).

Sharoiti og'ir bo'lgan Xovos, Mirzaobod, Oqoltin, Do'stlik, Paxtakor, Forish, Bo'ston, Vobkent, Mirishkor, Mingbuloq, Uzun va Piskentda kambag'al oilalarning soni 4,5 barobargacha kamaydi. Ilgari qiyin ahvolda bo'lgan 105 ming oila daromad ko'rishni boshladi.

Joriy yilda ilk bor 1 ming 435 ta mahalla “kambag'allikdan xoli” hududga aylandi.

Shu bilan birga, ayrim tumanlarning hokimlari katta resursi va mablag'i bo'la turib, ishlarni o'z holiga tashlab qo'ygani, odamlarga imkoniyatiga yarasha tayyor loyiha bermagani tanqid qilindi.

Shu bois Denov tumani hokimi va uning birinchi o'rinbosari, Chiroqchi tumani hokimi va uning birinchi o'rinbosari ishdan olinishi, yana 20 ta tuman hokimiga o'rnatilgan tartibda tegishli chora ko'rilishi belgilandi.

Umuman, kambag'allikni qisqartirish va bandlik rejalari bajarishdagi mas'uliyatsizlik uchun yil boshidan 261 nafar mas'ul

ishdan olingani, yana 492 nafariga intizomiy jazo berilgani ma'lum qilindi.

Kelgusi yilda kambag'allik va ishsizlik darajasini 4,5 foizdan kamaytirish mutasaddilarning asosiy vazifasi bo'lishi qayd etildi. Buning uchun kelgusi yilda iqtisodiyotga 450 trillion so'm kredit ajratilishi, 140 trillion so'mi mahalladagi kichik va o'rta loyihalar uchun berilishi belgilandi.

Davlatimiz rahbari bu boradagi ishlarni tashkil qilishning asosiy yo'nalishlarini belgilab berdi.

Birinchi — qurilish orqali aholini ishli va daromadli qilish.

Kelgusi yilda mamlakatimizda 675 trillion so'mlik investitsiya loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan. Shundan 380 trillion so'mi qurilish ishlarga to'g'ri keladi. 140 ming xonadonli ko'p qavatli uy-joy qurish maqsad qilingan.

Har bir hokim bundan samarali foydalanib, qurilish sohasining o'zidan kamida 20 — 25 ming, yaratilgan infratuzilma orqali 10 ming kishining bandligini ta'minlashi mumkinligi qayd etildi.

Eng katta yangilik — 2026-yilda ilk bor mahalla infratuzilmasini rivojlantirish uchun 20 trillion so'm viloyatlarning o'ziga beriladi.

Ikkinchi yo'nalish — servis loyihalarini ko'paytirib, aholi bandligini ta'minlash.

Mamlakatimizda eng yuqori o'sish sur'atini ta'minlayotgan soha xizmatlar sohasi ekani ta'kidlandi. Lekin viloyat, tuman hokimlari xizmatlar sohasiga katta sur'at berayotgan turizmni rivojlantirish orqali ish o'rinlarini yaratish va aholi daromadini ko'paytirish imkoniyatlarini to'liq ishga solmayotgani ko'rsatib o'tildi.

Turizm salohiyati yuqori 150 ta mahallaning infratuzilmasi yaxshilansa, bu yerlarda xizmatlar hajmini 10 trillion so'mga yetkazish,

45 ming nafar odamni savdo va servisdan band qilish mumkin.

Shu bois kelasi yilda 150 ta mahallaning har biriga infratuzilma uchun 3 — 5 milliard so'mdan beriladi. Tuman banklari bu joylarda mehmon uylarini barpo etish uchun 150 million so'mgacha imtiyozli kredit ajratishni yo'lga qo'yadi.

Chegara va anklav hududlardagi mahallalarga olib boruvchi yo'llarni ta'mirlab, u yerda mehmon uylari, dam olish maskani, savdo-servis obyektlari tashkil qilish orqali oilalarning daromadini ko'paytirish muhimligi ta'kidlandi. Ushbu mahallalarda dam olish va servis obyektlarini qurish loyiholari uchun 1 trillion so'm resurs ajratish topshirildi.

Bundan tashqari, sohil va yo'l bo'yida servisni rivojlantirish bo'yicha 500 ta mahalla tanlab olingan. Tuman banklari bu joylarda kamida 5 ta doimiy ish o'rni yaratadigan loyihalarga 1 milliard so'mgacha kredit berishni yo'lga qo'yadi.

Shu yilning o'zida 255 ta tunu kun ishlaydigan ko'cha ishga tushdi. Ularda 11 ming xizmat ko'rsatish obyekti ish boshladi, 27 mingga yaqin aholining bandligi ta'minlandi. Kelgusi yilda bunga qo'shimcha yana 200 ta shunday ko'chani tashkil qilish rejalashtirilgan.

Bir oyda aniq “Yo'l xaritasi”ni tuzib, ishni boshlab yuborgan hokimlarga har bir ko'cha infratuzilmasi uchun 4 milliard so'mgacha mablag' ajratilishi belgilandi.

Ovqatlanish, savdo va servis sohasida o'zining brendini yaratgan korxonalar butun respublika bo'ylab 100 — 150 tadan filialini ochish niyatida.

Bu borada viloyat hokimliklariga milliy brendlarga ko'maklashish topshirildi. Agar brendlar yangi ochiladigan filial uchun xodimlarni

o'zim o'qitaman, desa, buning xarajati Bandlik jamg'armasidan qoplab beriladi. Filialni ko'paytirish istagidagi brendlar uchun yangi moliyaviy instrumentlar joriy qilinib, 2026-yilda bunga 500 milliard so'm yo'naltiriladi.

Uchinchi yo'nalish — sanoat loyiholari orqali doimiy ish o'rinlarini ko'paytirish.

Kelgusi yilda hududlardagi korxonalarda 52 milliard dollarlik sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish reja qilingan. Mutasaddilar mahalliy sanoat tarmoqlarida 22 milliard dollarlik 3,5 mingga loyihani ishga tushirib, 130 ming doimiy ish o'rni tashkil qilishi zarurligi qayd etildi.

Hozirda 400 ta mahalla mebelchilik, hunarmandchilik va tikuvchilikka ixtisoslashtirilgan. Tadbirkorlarning joyi kengaytirib berilsa, har biri yana 5 — 10 kishini ishga olishga tayyor.

Shu munosabat bilan tuman hokimlariga kelasi yilda sanoatga ixtisoslashtirilgan bunday mahallalarda 50 ta “mikrosanoat markazi”ni ishga tushirib, 10 ming nafar odamni ishli qilish topshirildi. Bu markazlarning infratuzilmasi uchun 200 milliard so'm ajratiladi.

To'rtinchi yo'nalish — qishloq xo'jaligi hisobidan aholi daromadlarini oshirish.

Kambag'allikni qisqartirishda aholiga 232 ming gektar yer bo'lib berilgani natijasida 770 ming odam daromad manbaiga ega bo'ldi. Lekin tajribasi yetishmagani, sifatlil urug', mahsulotiga bozor topishga qiynalgani uchun ularning uchdan birida daromad kamligi ko'rsatib o'tildi.

Shu munosabat bilan Termiz tumanidagi Tomorqa maktabi tajribasini barcha hududlarda joriy qilish, har bir viloyatda kamida 5 tadan bunday maktablarni tashkil qilib, ijaraga yer olgan odamlarni

serdaromad ekin ekishga o'rgatish topshirildi. Dehqonlar ijaraga olgan yerida yetishtirgan mahsulotni kafolatli sotishi uchun “Eksporthi kooperativlari” tashkil qilinadi.

Beshinchi yo'nalish — ehtiyojmand oilalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish.

Yangi yildan “Teng imkon — inklyuziv bandlik” loyihagini joriy etib, nogironligi bo'lgan 40 ming odamni ishli qilish muhim ekani ta'kidlandi. Bandlik jamg'armasidan ularga 30 million so'mgacha foizsiz ssuda ajratish yo'lga qo'yiladi.

Kambag'allikka qayta tushish xavfi mavjud oilalarga ijtimoiy yordam va imtiyozlar saqlab qolinadi. Ularga 6 oy mobaynida moddiy yordam va bolalar nafaqasi to'lanishi davom ettiriladi, bog'cha va to'garak xarajatini qoplash, davanlanish orderi kabi 110 ta ijtimoiy xizmat va yordamdan 12 oy davomida qo'shimcha foydalanish imkoni beriladi.

Bundan tashqari, og'ir hayotiy vaziyat sababli kambag'allikka tushib qolishi xavfi yuqori bo'lgan oilalarni oldindan aniqlab, ularga manzilli yordam ko'rsatish yo'lga qo'yiladi.

Ish o'rinlarini “soyadan chiqarish” masalasiga ham to'xtalib o'tildi.

Ulkam maqsadlarni mablag'i bilan boshlayapmiz. Vazirlar, ularning hududiy boshqarma va bo'limlari, viloyat va tuman hokimlari, eng asosiysi, “mahalla yetiligi” ishga qattiq kirishmasa, o'zgarish bo'lmaydi, — dedi davlatimiz rahbari.

Bosh vazirga aytilgan topshiriqlarni vazir va hokimlarga 2026-yil uchun samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) sifatida belgilab berish topshirildi.

Yig'ilishda hudud va tarmoqlar rahbarlarining hisobotlari, tadbirkorlarning fikr-mulohazalari tinglandi.

O'zA.

Biz va jahon

OTB prezidenti:

“O'ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASIDA BELGILANGAN INSON QADRINI ULUG'LASH TAMOYILI

taraqqiyot falsafamizga to'liq mos keladi

Mamlakatimizga tashrif buyurgan Osiyo taraqqiyot banki prezidenti Masato Kande “Dunyo” axborot agentligi muxbiriga eksklyuziv intervyu berib, O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasida ro'y berayotgan o'zgarishlar sur'atini yuqori baholadi.

— Joriy yilda Osiyo taraqqiyot banki va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikning 30 yilligi nishonlanmoqda. Sizingcha, bugungi kunda ushbu sheriklik qanday darajaga ko'tarilgan va 30 yillik davomida mamlakatimiz taraqqiyotiga eng katta ta'sir ko'rsatgan asosiy bosqichlar qaysilar?

— Bu juda muhim bosqich. O'tgan 30 yil davomida O'zbekistonga 118 ta loyiha orqali 15 milliard dollardan ortiq mablag' yo'naltirildi. Bu loyihalar infratuzilma, energetika, transport, davlat korxonalarini isloh qilish, inson kapitalini rivojlantirish kabi deyarli barcha strategik sohalarni o'z ichiga oladi.

Yaqinda imzolangan 1,2 milliard dollarlik quyosh energiyasi va quvvat saqlash loyihasi e'tiborga molik. 1 000 megavatt quvvat — 600 mingga xonadon uchun toza energiya demakdir. Bu O'zbekistonning “yashil” energetikaga o'tishda mintaqadagi yetakchi davlatga aylanishiga zamin yaratadi. Biz O'zbekiston hukumati bilan aholining, ayniqsa, himoyaga muhtoj qatlamlarning hayotini yaxshilash uchun barga ishlayotganimizdan faxrlanamiz.

— O'zbekiston hozirda chuqur va aniq maqsadli islohotlarni amalga oshirmoqda: kambag'allikni qisqartirish, xususiy sektorga keng imkoniyat yaratish, zamonaviy raqamli infratuzilmani shakllantirish. Bu borada erishilgan natijalarni qanday baholaysiz? Ayni paytda OTB ushbu keng ko'lamli transformatsiyani qanday amaliy yo'llar bilan qo'llab-quvvatlamogda?

— O'zbekistonning islohotlar siyosati juda aniq: inson manfaatlari birinchi o'rinda. “O'zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan inson qadri ustuvorligi tamoyili taraqqiyot falsafamizga to'liq mos keladi. Biz kambag'allikni kamaytirish, ijtimoiy himoya tizimini yaxshilash, iqtisodiy modernizatsiya va uzoq muddatli rivojlanishga xizmat qiladigan islohotlarni qo'llab-quvvatlashdan mamnunmiz.

— OTB Markaziy Osiyoda mintaqaviy bog'liqlikni kuchaytirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Jumladan, “SARES” kabi yirik tashabbuslarda O'zbekiston qanday rol o'ynamoqda va bu dasturlardan qaysi asosiy yo'nalishlarda foyda ko'rmoqda?

— Bilasizmi, bu juda muhim. Integratsiya iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytiradi, bozorlarga chiqishni osonlashtiradi, logistika xarajatlarini kamaytiradi va qo'shni davlatlar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi.

Mazkur dasturda O'zbekistonning ishtiroki juda faol. Bu faqat yo'l va temir yo'l infratuzilmasi emas, balki savdo tartibotlarini soddalashtirish, bojxona tizimini raqamlashtirish, “Yashil energetika yo'lagi” kabi strategik tashabbuslarni ham o'z ichiga oladi. O'zbekistonning mintaqaviy yetakchilik ambitsiyasi bizni ham ruhlantiradi.

— O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga qo'shilish yo'lida faol harakat qilmoqda. JSTga a'zo bo'lish jarayoni OTB bilan hamkorlikning yangi bosqichini qanday shakllantiradi? Kelgusida qaysi yo'nalishlar ustuvor bo'ladi?

— Biz O'zbekistonning JSTga qo'shilish bo'yicha qat'iy sa'y-harakatlarini to'liq qo'llab-quvvatlaymiz. Bu jarayon mamlakatning global iqtisodiyotga chuqur integratsiyasiga xizmat qiladi. Osiyo taraqqiyot banki savdo siyosatini takomillashtirish, bojxona tartibotlarini moslashtirish, savdo imtiyozlarini yaratish, standartlashtirish va sertifikatlash tizimini rivojlantirish bo'yicha texnik va institutsional yordamni davom ettiradi. Raqamli ko'nikmalar va kadrlar salohiyati ham bu jarayonning ajralmas qismi.

Shu o'rinda bir muhim yangilikni aytmoqchiman: kelgusi yili OTBning yillik yig'ilishi Samarqand shahrida o'tkaziladi. Bu jahonning yetakchi moliya vazirlari, markaziy bank raislari, ekspertlar va biznes doiralari vakillarini birlashtiradigan eng nufuzli xalqaro platformalardan biri. Mazkur yig'ilish O'zbekiston uchun o'z yutuqlarini namoyish etish va kelgusidagi strategik rejalari bo'yicha global auditoriyaga to'g'ridan-to'g'ri murojaat qilish imkoniyatini yaratadi.

E'tirof

Milliy mukofot o'z egalariga topshirildi

Kecha “O'zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan ta'sis etilgan “Inson faxri” milliy mukofoti g'olblarini tantanali taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.

Unda Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva qatnashdi.

Tadbinning asosiy maqsadi — jamiyatimizda insoniy qadriyatlarini ulug'lash, turli sohalarda namunali faoliyat ko'rsatib, boshqalarga o'rnak bo'layotgan insonlarning mehnatini keng jamoatchilikka yetkazish va ularni davlat tomonidan munosib rag'batlantirishdir.

Yurtimizning turli hududlarida mehnat qilayotgan, bir qarashda

oddiy ko'ringan, ammo jamiyat ravnaqiga beqiyos hissa qo'shayotgan insonlar ushbu mukofot sovrindorlariga aylandi.

Tanlov doirasida mutasaddilar tomonidan bir yil davomida mamlakat bo'ylab insonparvarlik, jasorat, fidoyilik va ezigulikni o'zida mujassam etgan yuzlab insonlar haqida ta'sirli hikoyalar to'plandi. Ular orasida o'z faoliyati bilan atrofdegilarga ilhom berayotgan, jamiyatdagi

murakkab muammolarni hal qilishga hissa qo'shayotgan, yordamga muhtoj insonlarga ko'mak ko'rsatib kelayotgan fidoyi yurtdoshlarimiz bor.

Marosim davomida turli sohalarda alohida jasorat, mardlik va fidoyilik namoyon etgan, shuningdek, O'zbekistonning taraqqiyotiga o'zining amaliy hissasini qo'shayotgan insonlarning hikoyalari taqdim qilindi va ular “Inson faxri” mukofoti bilan taqdirlandi.

Oliy Majlis Senati
Axborot xizmati.

Munosabat

DASTURIY MAQSADLARGA HAMOHANG QAROR

Oziq-ovqat xavfsizligi — dolzarb masala. Har bir davlat o'z fuqarolarini yetarli va sifatlil oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashni strategik vazifa sifatida belgilaydi va zarur choralar ko'radi. Prezidentimizning shu yil 31-oktabrdagi “Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori mamlakatimiz aholisini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta'minlash, chorvachilik xo'jaliklarining ozuqa bazasini tubdan yaxshilash va narxlar barqarorligini saqlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari bu bo'yicha o'z munosabatlarini bildirdi.



Nuqtai nazar

O'zbekiston — AQSh:

HAMKORLIKNING YANGI DAVRIGA DADIL QADAM

O'zbekiston va AQSh o'rtasidagi munosabatlar so'nggi yillarda butunlay yangi siyosiy va iqtisodiy mazmunga ega bo'ldi.

Agar 1990 — 2000-yillarda ikki tomonlama aloqalar ko'proq xavfsizlik, terrorizmga qarshi kurash va Afg'oniston bilan bog'liq muammolar doirasida shakllangan bo'lsa, hozirgi bosqichda hamkorlikning markazida iqtisodiy islohotlar, investitsiya, innovatsiya, xususiy sektorni rivojlantirish hamda mintaqaviy integratsiya kabi keng qamrovli masalalar turibdi.

Ayniqsa, yaqinda Vashingtonda o'tgan “C5+1” sammiti va Prezidentimizning Oq uyga tashrifi ikki tomonlama munosabatlarni yangi strategik bosqichga olib chiqdi, desak, ayni haqiqat.



QANCHA SHONING BO'LSA — VATANNI KO'TAR!



1

Sirdaryo — O'rta Osiyodagi eng uzun, Jayxundan keyingi eng sersuv, eng mehribon va ayni mahalda qahrli, sir-sinoatlarga limmo-lim, tarixi ham o'zi singari uzun va sirli, qachon va qay zamonlar paydo bo'lganini hali-hanuz inson zoti aytolmaydigan Enadaryo umrida ko'rimgan edi bunday munavvar, bu qadar lolagun tonglarni.

Miloddan avvalgi zamonlarda ham hayqirib oqqan, qadim yunon tarixchilari asarlarida Yaksart, Tanais, zardushtiylarning muqaddas kitobi Avestoda Danu, Xitoy

manbalarida Yaosha, Xashart, runiy yozuvlarda Yenchuo'g'iz, “Shohnoma”da Gulzarriyun, arab solnomalarida Sayxun, milodning birinchi asrida yashagan Rim tarixchisi Pliniy yozuvlarida Silis nomi bilan yetti iqlimda dong taratgan ulug' daryo toshday og'ir va tunday mubham o'ylarga botgan edi asrlar davomida. Iskandardan Chingizgacha, arab istilosidan chorizm bosqiniyu sho'ro talonchilarining zug'umlarigacha boshdan kechirgan azim nahr sohillarida hech qachon bo'lmagan edi bunday kamalakrang tovlanishlar.

O'tmishi daryodan ham qadimiyroq bo'lgan, to'zonluru

to'fonlar ichida bovlilqday eshilib, nihoyat 1963-yilda viloyat sifatida tashkil topgan bo'lsa ham, farog'at topmagan Sirdaryoda 2016-yilga qadar paxta tozalash, don va yog'moy yozuvlarida boshqa bironta sanoat inshooti yo'q edi-da, axir! Yo'q edi, hatto tuzukroq qo'rg'on ham. Shunday g'arib va ko'rimsiz edi shimoldan Qozog'iston Respublikasi, sharqdan Toshkent viloyati, janubdan Tojikiston Respublikasi va g'arbdan Jizzax viloyatiga tutashib ketgan, qariyb 4,3 ming kilometr maydonni egallovchi qutlug' makonning rangru raftori.



QANCHA SHONING BOʻLSA – VATANNI KOʻTAR!

Soʻnggi 7-8 yilda asar ham qolmadi mashʼum quroq manzaralardan. Oʻzgardi.

Tamomila oʻzgarib ketdi oʻzbekning qadimiy vohasi. Ildizi 3 ming yildan ham uzoq zamonlarga tutash Sirdaryo zaminiga bobo quyosh boshqacha nur socha boshladi goʻyo. Daryo hayratlarga koʻmildi, dashtlarida jiydalarga gulladi, qizgʻaldoqlar xandon otdi, boʻtakozʻlar sollandi qirgʻogʻu sohillarida.

Tanib boʻlmay qoldi Guliston, Yangiyer, Baxt, Shirin degan koʻrimsiz shaharlarni. Osmonoʻpar binolar, koʻrkam bogʻlar, yirik korxonalar paydo boʻldi. Minglab sanoat, qishloq xoʻjaligi inshooti qurildi, koʻplab savdo va boshqa tarmoqlarga doir manzillar "qamishdan belni bogʻlab", ishga tushdi.

Moʻjizalar moʻjizalarga ulandi, ajdodlar hatto xayol ham qilolmagan ishlar yuz beraverdi. "Sirdaryoga investitsiya kiritmaysizmi?" desang, labini jiyradigan dunyoning badavlat sarmoyadorlari million-million dollarlarni belboqqa tugib, "Qaydasan, Sirdaryo!" deya otga mindilar. Birgina Saudiya Arabistonining "ACWA Power" va Turkiyaning "Cengiz Enerji kompaniyalari 1,14 milliard dollar olib keldi. Shu mablagʻi evaziga quvvati 1,7 ming MVT boʻlgan generatsiya foydalanishga topshirildi. Natijada qurilish materiallari, kimyo, oziq-ovqat sohalari rivojlanib, viloyatda sanoat hajmi 19,3 trillion soʻmdan oshdi.

Maktabgacha taʼlim tashkilotlari 2017-yildagi 155 tadan 1 147 taga, umumtaʼlim maktablari 296 tadan 340 taga yetdi. Aholini markazlashgan ichimlik suvi bilan taʼminlash darajasi 64 foizdan 88 foizga oshdi. 2 ming kilometr yoʻl taʼmirlandi, paxta hosildorligi 18,4 sentnerdan 40 sentnerga, gʻallaniki 47 sentnerdan 74 sentnerga yetdi, foydalanishdan chiqqan 34 ming gektar maydon qayta oʻzlashtirildi...

Garchand Prezidentga mamlakatdagi ahvol besh qoʻlday ayon boʻlgan esa-da, u kishi xalq ishonch bildirgan kundanog qishloqma-qishloq, shaharma-shahar yurdi, yana oʻrgandi, yana izlandi, yana qiyndi shirin jonini. Qayta-qayta bordi viloyatlarga, tumanlarga, qishloqlarga, ovullarga. Oʻn olti marta tashrif buyurdi Sirdaryoning oʻziga. Oʻta-qaytardagi toʻxtab oʻtishlar bu hisobga kirmaydi. Son-sanoqsiz kashfiyotlarga asos solindi tashriflar jarayonida.

Shu oʻrinda kashfiyot iborasiga ozroq izoh berish lozim koʻrinadi. Odatda, kashfiyot deganda darrov ilmu fan olamida yaratilgan ixtirolar keladi xayolimizga. Qolaversa, olamda bir-bridan sirli, oʻrganilmagan jumboqlar, yaratilmagan ixtirolar hali koʻp. Faqat topish kerak ularni. Hamma gap shunda. Shundan boshlanadi eng chuqur joylarda berkinib yoki koʻmlib yotgan xaziralarni kashf etish ham. Ichingda mudrab yotgan imkoniyatlarni uygʻotish ham hech qaysi kashfiyotdan kam emas aslida.

Turli sabablarga koʻra, chang-qum bosgan yoxud chala qolgan sohalar sanoqsiz edi Sirdaryoda. Ammo koʻmilgan xazinalar qopqasini ochib, viloyatni mamlakat taraqqiyotida yetakchi hududlardan biriga aylantirish imkoniyatlari moʻʼl edi. Uygʻotish, ishonitirish, yangilik yaratishga chorlash zarur edi odamlarni. Toʻqqiz emas, toʻqson marta oʻlchab, bir marta kesaqidigan sharqona aql-idrok talab qilindirdi bunday paytda karvon yetakchisidan.

Xudoyim suygan bandasiga munosib koʻradi ulugʻ salohiyatni. "El boshiga kun tushsa, el yaratgan er kelar" degan hikmat bejiz dunyoga kelmagan ekan. Davlat rahbari tomonidan Oʻzbekiston degan katta roʻzgʻorning muammolari ipidan ignasigacha chuqur tahlil qilinganidan keyin "Yangi Oʻzbekiston" daryolarining bugunidan to uchinchi Rennessans ummoniga borib quyilishigacha boʻlgan mukammal dastur yaratildi. Har bir hududda, jumladan, Sirdaryoda ham nimalarga eʼtibor qaratish zarurligi aniq-tiniq belgilandi. Bu rejalarini amalga oshirish uchun qancha kuch, mablagʻ, investitsiya, xullas, yurtni qalqitish uchun nimaki kerak boʻlsa, hamma-hammasi aniq-tiniq hisob-kitob qilindi.

Shu tarzda viloyat tarixi zarvaraqilarida yangi sahifalar ochila boshladi, yangi tashabbuslar qanot chiqardi. Quyuq tumanidan soʻng quyosh charaqlab nur taratgani kabi manzaralar yuz bera boshladi Sirdaryoda.

Birgina Xovos shaharchasidagi oʻzgarishlarning oʻzi katta-katta dostonlarga munosib mavzu boʻladi.

Tarixdan ayonki, Fargʻona, Choch va Soʻgʻdga boradigan savdo yoʻlining chorrahasida joylashgan tufayli Xovos qoʻrgʻoni miloddan oldingi IV asrlarda ham yuksak mavqega ega boʻlgan. "Havas qilsa arziydidigan joy ekan" deganlar sohibqiron bobomiz Amir Temur Xovosni. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdurahmon Jomiy, Xoja Ahror Valiyalarning izlari bor bu qadim tuproqda. Afsuski, faxrlansa arzigulik

shunday manzil ham 7-8 yil avval koʻrimsiz ahvolga tushib qolgan edi.

Prezidentimiz 2019-yil 19-fevral kuni viloyatga tashrif chogʻida Xovosga borib, soʻnggi ellik yil davomida birona koʻp qavatli uy tugul, hatto kaptaxona ham qurilmagan qoʻrgʻon bilan, eski, tor va zax umlarda yashayotgan odamlarning turmush tarzi bilan tanishadi. Shu asnoda shaharchaning yangi bosh rejasi tasdiqlanib, Mirzachoʻl tajribasi asosida buni etiladigan Yangi Xovosga tamal toshi qoʻyildi. Qoʻrgʻoncha uchun katta koʻlning oʻng qanotidan 42 gektar hudud ajratiladi. Loyihaga muvofiq, u yerda mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining binolari, Davlat xizmatlari agentligi, tijorat banklari, torarjoylar, maktablar, istirohat bogʻi, xotira maydoni, kinoteatr, kutubxona, masjid, bozor, savdo markazi va maishiy xizmat shoxobchalari qurilib, yoʻl infratuzilmasi rivojlantirilishi, aholi va transport uchun qulayliklar yaratilishi belgilanadi.

Oradan uch oy oʻtar-oʻtmas, oʻsha yil 7-may kuni, Prezident toʻshiriqlarining ijrosi doirasida, Vazirlar Mahkamasining Xovos tumani markazini rivojlantirishga oid alohida qarori qabul qilindi. Shu tariq 27 mingdan ziyod aholi istiqomat qilayotgan Xovos tarixida yangi davr boshlandi.

Besh oy oʻtib, 2019-yilning 18-iyulida Prezident yana Xovosga keldi. Bu paytda maxsus ajratilgan hududda 760 ta xonadondan iborat 30 ta koʻp qavatli va 150 ta bir qavatli uylarni qurish ishlari jadal davom etayotgan edi.

Bugun Xovosga qadami yetgan kishi turnaqator yularda porlab turgan chiroqlarni, zamonaviy maydonchalarda yayrab oʻynayotgan bolalarning shodon kulgilarini, sanʼat va musiqa maktabi tomondan eshtilayotgan dilbar ohanglarni, kaftdek tekis yoʻlaklarda suhbatlashib borayotgan oqsqoqlarning yuz-koʻzlaridagi sevinchlarni koʻrib, qalbi quvonchga toʻladi.

Faqat Xovos emas, Prezident tashriflari viloyatning hamma tuman va shaharlarida bir-biridan havasli oʻzgarishlar yuz berishiga asos boʻlmoqda.

7-8 yil avval koʻp qavatli turarjoy binolari atrofini zax, yertoʻlalarini pashsha-chivin bosib yotadigan Guliston shahrining "yara"lari ham ana shunday tashriflardan keyin tuzaldi. Kentda "Buyuk kelajak" mavzeisi, "Guliston sili" shaharchasi dunyoga keldi. Oʻzbekiston va Mustaqillik koʻchalari oraliqida madaniy markaz tiklandi, zamonaviy amfiteatr qurildi, ular atrofda maʼmuriy binolar bilan jozibali uygʻunlik kasb etdi. Kitob doʻkoni oldida soʻlim xiyobon barpo qilinib, Alisher Navoiy haykali oʻrnatildi.

Yangiyer shahrining qayta bunoyd etilishiga esa Prezidentning 2017-yil 17-maydagi tashrif sabab boʻldi. Shundan soʻng tashkil qilingan "Yangiyer" kichik sanoat zonasida bir yilning oʻzida jami qiymati 106 million dollarga teng boʻlgan 125 ta loyiha amalga oshirildi. Natijada viloyatda toʻqimachilik, charm-poyabzal, kimyo, oziq-ovqat, elektrotexnika sanoati, qurilish materiallari ishlab chiqarish, meva-sabzavotlarni qayta ishlash yoʻlga qoʻyildi, bir necha ming ish oʻrni yaratildi. Xususiyashtirilgan, ammo ishlatilmay boʻsh yotgan qator korxona va obyektlarda ham davlat rahbarining



tashriflaridan soʻng rivojlanish fasli boshlandi.

Sirdaryo tumanidagi "Sirdarya golden fruits" masʼuliyati cheklangan jamiyati, Meva-sabzavotchilik logistika markazi, Mirzaobod va Sayxunobod tumanlarida ulkan issiqxonalar, Guliston tumanida qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini, guruchni qayta ishlovchi korxonalar ishga tushdi. "Agro eco technology" masʼuliyati cheklangan jamiyati tomonidan sabzavot va dukkakli oʻsimliklar yetishtirish yoʻlga qoʻyilib, unab bogʻi tashkil etildi. "Sirdaryo-mega-luks", "Ideal asr" kabi yirik korxonalar, "Poly tex Sirdaryo" klasteri, "Sirdaryo universal oyna" masʼuliyati cheklangan jamiyati va yana oʻnlab yirik loyihalar ham Prezident tashriflarining bir-bridan shirin mevalaridir. Bu loyihalar miqyosini tasavvur qilish uchun birgina "Sirdaryo universal oyna" masʼuliyati cheklangan jamiyatining yoʻri-bastiga koʻz tashlaylik. 2018 – 2020-yillarning oʻzida korxonada 501 million dollarlik loyiha amalga oshirilib, import oʻrini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarildi.

Oʻsha yillari mamlakatimiz farmatsevtika sanoatiga har yili 4 million dollarlik shisha flakonlar import qilinar

edi. Markaziy Osiyoda bitta sanalgan ushbu korxonada yuzdan ortiq turdagi shisha idishlar tayyorlash yoʻlga qoʻyildi. Bu esa yurtimizdagi farmatsevtika korxonalariga ayni mahsulotni yetkazib berish imkoniyatini kengaytirdi.

Shavkat Mirziyoyevning 2016-yilda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod sifatida sirdaryolik saylovchilar bilan boʻlgan uchrashuvida "Men qaysi vazifada ishlashimdan qatʼi nazar, Sirdaryodan qadamim ham, koʻnglim ham hech qachon uzilgan emas. Viloyatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojiga, mavjud muammolarni yechishga ozmi-koʻpmi hissam qoʻshilayotgan boʻlsa, men buni oʻzim uchun katta baxt deb bilaman", degan kamtarona eʼtirofining amaldagi isboti, ehtimol, mana shular boʻlsa kerak.

Hech esimdan chiqmaydi. 2023-yilning aprelida xalq deputatlari Sirdaryo viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasi boʻldi. Men ham ishtirok etgandim oʻsha majlisida.

...Prezident zalga har doimgidek oʻtkam qadamlar bilan kirib keldi. Avvallari turli yigʻinlarda, uchrashuvlarda Shavkat Mirziyoyevni koʻp koʻrganman, albatta. Oʻsha kun, nazardimda, nimadandir tashvishlanayotgandek tuyuldi menga.

Birozdan keyin Yurtboshimizning oʻzlari oshkor etdilar – u kishini bezovta qilgan tashvish Sirdaryo koʻchalariida qarovsizliklar ekan.

– Men bugun Toshkentdan Gulistongacha poyezdda, temir yoʻl vokzalidan buyogʻiga mashinada keldim, – dedi Prezident. – Yoʻllarning achinarli ahvoli qattiq tashvishga soldi meni. Bunday yoʻllarda yurganlar dardini kimga aytadi?

Eʼtiroz Avtomobil yoʻllari qoʻmitasi va Transport vazirligiga qaratilgan edi.

Masʼullarning javoblari Prezidentimizni mutlaqo qoniqtirmadi:

– Bu yoʻllarda mening yoshligim oʻtgan, har qadami menga tanish. Talabaligimda Yangiyerdan Zomingacha piyoda ketganmiz. Hammayoq oʻydim-chuqur, chang-loy boʻlib yotardi. Bugun oʻtgan asr emas-ku! Qabul qilingan qaror boʻyicha bu yoʻllarni taʼmirlash ikki yil avval oxiriga yetgan boʻlishi zarur edi.

Vazirlar va tegishli masʼullar zimmasiga viloyatdagi barcha katta-kichik yoʻlu koʻpriklarni tuzatish choralarini koʻrish vazifasi yuklatildi. – Toʻgʻri, soʻnggi 6 yilda Sirdaryoda katta oʻzgarishlar yuz berdi, – davom etdi Prezidentimiz. – 30 trillion soʻm investitsiya jalb qilinib, 6 ming 640 ta yangi korxona ishga tushirildi. Bu orqali 55 mingta yangi doimiy ish oʻrni yaratildi. 17 mingta oila kambagʻallikdan chiqarildi. Tadbirkorlar soni 2 baravar koʻpayib, 7 mingdan 15 mingga yetdi. Ummuman, Sirdaryoda sanoat yoʻqdan bor boʻldi, desak, bu ham haqiqat. Bu yerda ilgari boʻlmagan qurilish materiallari, farmatsevtika, charm va oziq-ovqat sanoati kabi yangi tarmoqlar yuzaga keldi.

Davlat rahbari Sirdaryoda hali foydalanilmay yotgan katta imkoniyatlar mavjudligini taʼkidlayotganida, koʻngligida tashvishlar yanayam ochiqroq ayon boʻlib boraverdi. Bilmas ekanman, Sirdaryoda suv boshqa viloyatlarga



nisbatan serob, ekin maydonlari esa aholi jon boshiga Xorazm va Navoiyga qaraganda 2 baravar, Samarqand, Andijon, Fargʻona va Namanganga nisbatan 3 baravar koʻp ekan. Hosildorlikchi?.. Xorazmda gʻallaning har gektaridan 100 – 120 sentnerlab don yetishtirilyapti. Sirdaryoda esa uning yarmichayam emas. Fargʻona vodiysining ayrim qishloqlarida yerdan toʻrt martagacha hosil olindi. Sirdaryoda esa bir marta, shuyam chala-chulpa. Fargʻonaliklar tomorqasi tugul yoʻl yoqalarayu ekin maydonlarining uvatlarigacha bir qarichni ham boʻsh qoldirmay uzum, oshqovoq, tarvuz, qovun, hech boʻlmasa, yalpizu rayon ekadi. Sirdaryoda esa gektar-gektar maydonlar, katta-katta tomorqalar yillab boʻsh yotadi. Sababini soʻrasangiz, yerning yomonligiga toʻnkashadi. Lekin Prezident kuyunib qayta-qayta taʼkidlaganidek, qaramasang, haydamasang, oʻgʻit bermasang, ariq-zovurlarni tozalamasang, yer qanday qilib yaxshi boʻladi?

– Sirdaryoni innovatsion hududga aylantirmasak, viloyatda rivojlanish boʻlmaydi. Biz viloyatga qaysi davlat tajribasini olib kelish haqida koʻp



Abdusaid KOʻCHIMOV, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati aʼzosi, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yoshlar murabbiysi.

oʻyladik va oxiri Xitoyda toʻxtadik, – davom etdi Prezident. – Tan olish kerak, oxirgi yillarda Xitoy sanoat, qishloq xoʻjaligi, taʼlim va tibbiyotda misli koʻrilmagan yutuqlarga erishdi. Xitoyning ilm, innovatsiya, muhandislik, elektrotexnika, robototexnika va IT yoʻnalishlarida tajribasi juda katta. Eng asosiysi, Xitoy bizga transport-logistika jihatidan eng yaqin yirik bozorlardir.

Oʻrni kelganda taʼkidlash joiz, Prezident viloyatning avvalgi rahbari, hozir Prezident maslahatchisi vazifasini bajarayotgan Gʻofurjon Mirzayevning hokimlik faoliyatiga yuqori baho berdi. "Mirzayev sizni ham tindirmadi, oʻziyam tinmadi, – dedi Prezident. – Eng muhimi, odamlarda "boʻlar ekan-ku" degan ishonch uygʻondi".

Sessiya tugagach Prezident Guliston shahridagi qariyb ming kishi mehnat qilayotgan "Omonmedfarm" korxonasi faoliyati bilan tanishib, shu yerda 6 ta yangi korxonani ishga tushirish marosimida ishtirok etdi. Keyin otashin sheʼrlari bilan xalqimiz koʻnglidan "haqiqat va adolat jarchisi" sifatida joy olgan shoir Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabiga bordi.

...Maktabga kiraverishda shoiraning haykali bor. Tabiatni jonidan sevgan shoiraloqizgʻaldoqdan qoʻziquloqqacha, boychechakdan tuyatovongacha, yantogdan saksovulgacha chappir urib yotgan Boyovut dashtlariga boqib, toʻya olmay, havas bilan tikilib turganday.

Prezidentimiz haykal poiyiga gul qoʻyayotganida shoiraning:

Qon aslan yorugʻlik. Yorugʻlan, tiz choʻk. Asl mard Vatanga tiz choʻkib oʻtar. Qancha qoning boʻlsa, Vatun uchun toʻk, Qancha shoning boʻlsa – Vatanni koʻtar!

– degan hayqirgʻi shahru qishloqlar osha dashtu dalalarda aks sado berayotgandek tuyuldi.

Oʻsha kuni davlat rahbari oʻquvchilar, muallim va ziyolilar bilan dildan qancha samimiy suhbatlarida "Men Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Halima Xudoyberdiyeva bilan xuddi aka-ukalardek juda qadrdon edim", desilari. "Bu ijodkorlar yaratgan asarlarni, qayta-qayta oʻqiyman, mutolaa qilaman. Abdulla akaning birgina "Men nechun sevaman Oʻzbekistonni" sheʼri'ni qarang, qancha mazmun-maʼno, hikmat, Vatanga muhabbat bor shu bitta sheʼrning mohiyatida. Bugun bizga ana shunday millatparvar shoirlar kerak. Hozir ijod maktabini quridik. Binolar goʻzal, zamonaviy, qoʻrish-oʻrganish uchun hamma sharoit mujassam. Endi mazmun ham shakliga munosib boʻlishi kerak. Bunday dargohlarda taʼlim olayotgan yoshlarning koʻzlari yonib turishi kerak. Vatun uchun, millat uchun, xalq uchun kuyib-yonadigan fidoyilar kerak bugun Vatanga", degan soʻzlari yoshlar qalbiga mangu muhlalandi.

Uch yildan ziyodroq vaqt oʻtdi oʻshandan buyon. Endi undan buyogʻini aytar boʻlsam, shu uch yilginada bajarilgan ishlar ham lofi bilan uch asrda qilinganidan kam emas. Sanasang sanoat, taʼriflasang qogʻoz oz. Shul bois oʻtayotgan 2025-yilning oʻzidagi va kelgusidagi rejalariga doir raqamlarning ayrimlarini tilga olish bilan chegaralanamiz.

Marhamat, oʻqing. Sirdaryoliklar 2025-yilning birinchi yarim yilligini barqaror iqtisodiy oʻsish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish, aholi bandligi va ijtimoiy hayotdagi islohotlar bilan qarshi oldilar. Soʻzda emas, amaliy harakatda namoyon boʻlayotgan bunday yutuqlarni eng avval soliq tushumlarida yaqqol koʻrish mumkin. Zero, iqtisodiyotni tushunadiganlar soliq tushumlarini barqarorlik poydevori, deydlar. Joriy yilning birinchi yarmida ularning hajmi oʻtgan yilning mos davridagiga nisbatan 139 foizga oʻsdi. Agar 2024-yilning 1-yarmida 758 milliard soʻm soliq tushumlari tushgan boʻlsa, bu yil mazkur koʻrsatkich 1 trillion 53 milliard soʻmga yetdi. Yalpi hududiy mahsulot hajmi yarim yilda 106,3 foizga bajarildi. Yil yakuniga qadar bu koʻrsatkich 107,5 foizga koʻpayadi.

Yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushishi, xususan, Mirza-obod, Sayxunobod va Guliston shaharlaridagi sanoat zonalarida kichik korxonalarning

faoliyat boshlashi natijasida ishlab chiqarish hajmi sohada yil yakunigacha 107 foizga yetkaziladi. Iqtisodiyotning asosiy harakatlaniruvchi kuchi boʻlgan xizmatlar hajmi yarim yillikda 6,3 trillion soʻmni tashkil etib, oʻtgan yilning mos davridagiga nisbatan 114 foizga oshgan boʻlsa, mazkur koʻrsatkich yil yakunida 115 foizga yetkaziladi.

6-7 oyda tadbirkorlik subyektlari soni 771 taga koʻpaydi. Hududlarda ixtisoslashuvga eʼtibor kuchaydi. Sardobada meva-sabzavotni qayta ishlash, Xovosda maishiy texnika, Gulistonda tekstil mahsulotlari ishlab chiqarish boʻyicha yangi loyihalar amalga oshirilmoqda.

Toʻgʻridan-toʻgʻri xorijiy investitsiyalar hajmi ham 141 foizga oshib, 416 million AQSH dollarini tashkil etdi. Xovosda xitoylik investorlar ishtirokida polimer mahsulotlar ishlab chiqarish zavodi, Sayxunobodda elektr jihozlari ishlab chiqarish sexi ishga tushirildi. Eksport hajmi 150 million AQSH dollariga yetdi. Bu oʻtgan yilning mos davridagiga nisbatan 123 foizga oʻsganini anglatadi. Yil boshida 11,3 foiz boʻlgan kambagʻallik darajasi 1-iyulga kelib, 7,1 foizga kamaygan boʻlsa, koʻrsatkich yil adolgʻiga borib 5,3 foizgacha tushadi.

Endi ikki jumla tomorqa haqida. Tomorqa deganda yaqinlarga qacha oʻt bosgan qarovsiz hovilalar kelardi odamning koʻz oldiga. "Yangi Oʻzbekiston" islohotlari bu sohaga boʻlgan munosabatlarni ham tomonam yangiladi. Aholida shaxsiy tomorqadan foydalanish madaniyati oʻzgardi. Bu nafaqat oila bandligini taʼminladi, balki qoʻshimcha daromad manbalarini yaratdi.

Sayxunobod tumanining Oʻzbekiston mahallasida yashovchi Kamol Muhammadiyev 2020-yilda 25 sotix maydonga Oltiriq tajribasi asosida uzum ekishni yoʻlga qoʻyib, oʻtgan yilning oʻzida 8 tonna mahsulot oldi. Sovitkichda saqlash orqali dekabr-yanvar oylarida 300 – 400 million soʻm sof daromad egasiga aylandi. Sirdaryo tumanidagi Baxmal mahallasida istiqomat qiluvchi Dilafoʻz Boyboʻtayevo 30 million soʻm kredit olib, 6 sotix yerda "Qora shahzoda" navli atirgul koʻchatlari yetishtirishni yoʻlga qoʻydi. Bu yil u 30 ming dona atirgul sotib, 60 million soʻm daromad oldi.

Bunday yuzlab misollar aholining mehnatsevarligi, tadbirkorlik ruhi va zamonaviy yondashuvlarini namoyon etmoqda. Maqsad har bir fuqaro munosib hayot kechirishiga, har bir xonadon daromad manbaigacha ega boʻlishiga erishish va yan bir mahallani farovonlik manziliga aylantirishdir.

Ilgari kuniga faqat 9 soat suv beriladigan Guliston shahrini 24 soat uzluksiz ichimlik suvi bilan taʼminlash maqsadida Prezident qarori bilan 35 milliard soʻm ajratildi, 64 kilometr suv tarmoqlari tortildi va 2 ta suv inshooti rekonstruksiya qilindi. Yaqin kunlarda Guliston va atrof tumanlar toʻliq suv bilan taʼminlanadi.

Guliston shahri qatorida Boyovut tumanining Qaropchi va Yangi avlod, Guliston tumanining Zarbdor, Ishonch va Mevazor mahallalari ham uzluksiz ichimlik suvi bilan taʼminlanadi. Xovos va Boyovut tumanlarida esa 32 ming nafar aholining 35 yillik orzusi ushaldi. U yerlarga ilk bor "Zomin suv" markazlashgan tizimi orqali obihayot yetib keldi.

Guliston shahridagi 51 ta koʻp qavatli uyning 1 173 ta xonadoni kanalizatsiya tizimiga ulandi. Mahalliy byudjet hisobidan ajratilgan 1 milliard soʻm mablagʻ vositasida Guliston va Yangiyer shaharlari hamda Oqoltin va Sayxunobod tumanlaridagi 81 ta koʻp qavatli uyning yertoʻla qismidagi oqova suv tizimlari yangilandi. Hozir Guliston shahridagi Shimoliy suv inshootidan Yangiyer shahrigacha katta hajmli 33 kilometr suv tarmogʻi qurilmoqda.

Yoʻling ravon boʻlmasa, ovulengga qush ham uchib kelmaydi. Abgor ahvoldagi 300 kilometr yoʻl 6 oy ichida tuzatilib, asfaltlandi. Yana 36 kilometr ichki yoʻlga shagʻal toʻshaldi. 78 ta mahallada 300 mingdan ziyod aholi uchun qulay harakatlanish imkoniyati yaratildi. Sayxunobod tumanining Oʻrikzor mahallasida 35 – 40 yildan buyon oʻydim-chuqur boʻlib yotgan yoʻllar ilk bor asfalt-beton bilan qoplandi.

Yil yakuniga qadar viloyatda yana 376 kilometr yoʻl, jumladan, 356 kilometr ichki yoʻl va 3 ta koʻpriklar taʼmirlanishi rejalashtirildi.

*** ..."Yana-yana"larni yana va yana davom ettirish mumkin. Yutuqlar oz emas. Sirdaryoni obod qilish uchun bir tanu bir jon boʻlib, ter toʻkayotganlarning shiddat-shijoati esa hammasidan baland, hammasidan havasli. Shunday lahzalarda, beixtiyor yana oʻtashqalb, dilbar shoir opamiz Halimaxonim Xudoyberdiyevanig:

– Qancha shoning boʻlsa – Vatanni koʻtar! – degan hayqirgʻi shaharu qishloqlar osha dashtu dalalarda aks sado berayotgandek tuyulaveradi. Va sen ham qanday qilib shoiraning davlatlarga qoʻshilib ketganigini sezmay qolasan:

– Qancha shoning boʻlsa – Vatanni koʻtar!

“SHOVOT – TOSHHOVUZ” CHEGARAOLDI SAVDO ZONASI

doʻstlik rishtalarini ham mustahkamlaydi



Oʻzbekiston va Turkmaniston oʻrtasidagi savdo-iqtisodiy va madaniy munosabattar keyingi yillarda butunlay yangicha mazmun kasb etib, yuqori bosqichga koʻtarildi. Ikki davlat rahbarlarining muntazam oʻtkazilayotgan oliy darajadagi uchrashuvlari mamlakatlarnimiz oʻrtasidagi yaqin qoʻshnichilik, strategik sheriklik va oʻzaro manfaatli hamkorlik aloqalarini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Oʻzbekistonning Xorazm va Turkmanistonning Toshhovuz viloyatlari chegarasida barpo etilgan yangi savdo zonasi ishga tushirilishi ham tovar ayiriboshlashni koʻpaytirishda yana bir muhim amaliy qadam boʻldi.

Mazkur savdo zonasi ikki mamlakatning chegaradosh hududida, "Shovot – Toshhovuz" oʻtkazish punkti yonida 3,1 gektar maydonda barpo etildi. Uning hududida yopiq pavilyonda joylashgan savdo rastalari, doʻkonlar, mahsulotlarni qabul qilish va saqlash uchun omborxonalar, mehmonxona, oshxona, avtoturargoh, tibbiyot punkti, bank filiali va valyuta ayiriboshlash shoxobchalaridan iborat zamonaviy infratuzilma yaratildi. "Yagona darcha" tamoyiliga asoslangan davlat xizmatlari koʻrsatish, jumladan, fitosanitariya va veterinariya shoxobchalari tashkil etildi.

Shu bilan birga, ushbu hududda vizasiz tartib joriy etilishi ikki davlat fuqarolariga yanada qulay sharoitlarni yaratib beradi.

Maʼlumki, Xorazm viloyatining qoʻshni Toshhovuz viloyati bilan oʻzaro savdo aylanmasi yildan-yilga oshib bormoqda. Toshhovuzga bazalt pitalari, gulqogʻoz, lok-boʻyoq mahsulotlari, quruq va hoʻl mevalar eksport qilinsa, Turkmanistondan yurilmizga neft va neft mahsulotlari, bitum, keramika, aliuminiy va shisha buyumlari olib kirladi.

– Xalqimizda uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qoʻshni yaxshi degan naql bor, – deydi Turkmaniston Mejlisi deputati Jeyren Qilichmuradova. – Darhaqiqat, yon qoʻshni – jon qoʻshni boʻlgan oʻzbek va turkman xalqlarini mustarak madaniyat va qadriyatlar, urf-odatlardagi oʻxshashlik, teran tarixiy idilzlar oʻzaro bogʻlab turadi. Ikki qardosh el azaldan bir-birining madaniyatini boyitib, savdo-sotiq qilib kelgan, bir daryodan suv ichgan. Tili, dili yaqin va dini bir boʻlgan bu ikki xalq asrlar davomida yonma-yon yashab, bir-biri bilan quda-anda boʻlib ketgan. Yangi ish boshlagan savdo zonasi nafaqat oʻzaro savdo-sotiq hajmini oshiradi, balki ikki xalq oʻrtasidagi mehr-oqibat, oʻzaro hurmat va hamjihatlikni yuksaltirishga ham xizmat qiladi.

Tadbirkorlarning ushbu erkin savdo zonasi imkoniyatlariga qiziqishi juda katta. Chunki bu yerda Oʻzbekistonda va Turkmanistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlarning chakana savdosi uchun "Erkin bojxona zonasi" bojxona rejimi amal qiladi va bu oʻzaro savdoni rivojlantirishga katta ragʻbat beradi.

– Buyuk Ipak yoʻlida joylashgan ikki davlat oʻrtasida savdo-iqtisodiy aloqalar azaldan rivoj

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'za yakuni — 01.50 Topshirildi — 02.00 **1 2 3 4 5 6**